

“Iste’molchi” da o’rnatilgan hisobga olish priborlarini almashtirish va o’rnatish, plombalashni ta’minlash;

davlat standartiga muvofiq bo’lgan elektr energiyasini yetkazib berish.

Ta’minotchi korxonaga qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Elektr ta’minoti shartnomasi bo’yicha taraflar O’zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgar bo’ladi shuningdek, shartnoma shartlari bajarilmagan yoki tegishli tarzda bajarilmagan hollarda, “Ta’minotchi korxonaga” buning natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashga, “Iste’molchi” esa yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashga majbur.

5.2. “Ta’minotchi korxonaga” “Iste’molchi” oldida moddiy javobgar bo’lmaydi agar:

“Iste’molchi” elektr energiyasi iste’molining belgilangan rejimiga rioya qilmay, elektr energiyasi iste’moli yoki quvvatining shartnomaviy miqdoridan oshib ketishiga yo’l qo’yganda, “Ta’minotchi korxonaga” tomonidan belgilangan elektr energiyasi cheklash jadvali bajarmagani tufayli past sifatli elektr energiyasi yetkazib berilganligi uchun;

zaxira manbai avtomatik ishga tushganda, avtomatik qayta ulash va avtomatik tarzda chastotani sozlash bilan bog’liq o’chirishlar vaqtida elektr energiyasini yetkazib berish borasidagi tanaffuslar uchun “Iste’molchi” oldida moddiy javobgar bo’lmaydi.

5.3. Tomonlar ularning xohish va harakatlariga bog’liq bo’lmagan tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar sababli ushbu sharoitlarda qaytarib bo’lmaydigan va oldindan bilib bo’lmaydigan favqulodda holatlarni o’z ichiga olgan yengib bo’lmaydigan kuch (fors-major) oqibatida o’z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajara olmasa, tomonlardan hech biri o’z majburiyatlarini to’liq yoki qisman bajarmagani uchun javob bermaydi.

5.4. Mazkur shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha kelishmovchilik va nizolar muzokara o’tkazish orqali hal qilinadi. Kelishmovchiliklarni muzokara o’tkazish orqali hal qilishning iloji bo’lmaganda, ular qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

5.5. Elektr energiyasi yagona elektr energetika tizimidan tranzit bo’yicha iste’molchining elektr tarmog’i orqali hududiy elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmog’iga uzatilganda, iste’molchi tarmoqlaridagi elektr energiyasi texnologik sarfining bir qismi, iste’molchining elektr tarmog’iga kelib tushgan elektr energiyasining umumiy miqdoriga nisbatan hududiy elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmog’iga iste’molchi tomonidan uzatilgan elektr energiyasi miqdoriga mutanosib ravishda, yagona elektr energetika tizimining elektr tarmoqlaridagi texnologik sarflarga o’tkaziladi.